

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining
Ichki audit bo‘limi bosh mutaxassisi lavozimiga qo‘yiladigan
MALAKA TALABLARI**

Ichki audit bo‘limi bosh mutaxassisi	
Ma’lumot	Nomzod oliy ma’lumotga ega bo‘lishi, Iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya hisobi, audit, bank ishi, soliq, menejment mutaxassisligiga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, Ichki audit bo‘yicha milliy malaka sertifikatiga ega bo‘lishi shart.
Mutaxassislik	
Mehnat staji	Nomzodning umumiy mehnat staji kamida (3) uch yilni tashkil etishi shart. Ichki audit xizmatida yoki tashqi audit tashkilotlarida ishlaganlik afzal hisoblanadi.
Davlat tilini bilishi	Nomzod davlat tilini mukammal darajada bilishi, xizmat faoliyatini davlat tilida yuritish, rasmiy hujjatlar bilan ishlash hamda ish yuritish qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi shart.
Xorijiy tilni bilish darajasi	Nomzod xorijiy tillarni bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro darajada tan olingan sertifikatlariga ega bo‘lishi afzal hisoblanadi.
Kompyuter savodxonligi	Kompyuter savodxonligi bo‘yicha nomzod zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishi, MS Office dasturlar paketi, ayniqsa Excel dasturi bilan mukammal ishlay olishi hamda Internet tarmog‘idan xizmat vazifalarini bajarishda foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.
Qo‘shimcha talablar	Ichki audit xizmatlari tomonidan budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini tahlil qilish va baholash hamda moliyaviy hisobotlar shakllantirilishini; Ichki audit xizmatining huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, ichki audit xizmati faoliyati bo‘yicha hisobotlarni tayyorlashni;

Mazkur lavozim belgilangan tartibda 5 (besh kun muddatda) tanlovga chiqariladi (12-16.06.2026).

Mazkur vakant lavozimga quyida keltirilgan elektron pochta orqali hujjat topshirishlaringiz mumkun.

Murojaat uchun 71 207 07 70 (3030)